

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



Ro'yxatga olingan № O
2023-yil 22.08

"TILSHUNOSLIK ASOSLARI"

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 230 000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi: 60230700 – Amaliy filologiya

Toshkent-2023

Handwritten signature

Fan/modul kodi TA 1105	Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek		Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024	
Semestr	Har bir semestrda fanning nomi	Hafalik dars sonlari	Auditoriya mashg'ulatlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	Tilshunoslik asoslari	5	4	60	90
	Jami:	5	4	60	90

2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi tilshunoslik sohasi, tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi o'ziga xos tabiati, til va jamiyat; til va tafakkur; til va nutq munosabatlari, til birliklarining o'zaro mutanosib, yaxlit tizim sifatida namoyon bo'lishi; til fanning har bir bo'limi mohiyati; til fani bo'limlarining o'rganish obyekti yuzasidan bilimni; talabalarda "Tilshunoslik asoslari" kursi doirasida mustaqil fikrlay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – tilning tabiati, mohiyati kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi, strukturasi va bu strukturani tushkil etgan elementlarning o'zaro munosabati, uning ichki mexanizmi, ishlash prinsiplari kabi muhim masalalarni ilmiy o'rganishni, ilti har taraflama tadqiq qilishni ochib berish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Kirish. "Tilshunoslik asoslari" fanining maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti. Tilshunoslikning fan sifatida shakllanishi. Til, tilshunoslik, kommunikativ vosita, lingvistika, sinxron, diaxron, umumiy, xususiy, ichki, tashqi, nazariy, amaliy tilshunoslik</p> <p>2-mavzu. Tilning paydo bo'lishi haqida nazariyalar</p> <p>Tilning kelib chiqish muammosi, "til-ong-jamiyat" musharakligi, avstralopitekklar davri, paleantropklar davri, hozirgi zamon kishilari bosqichi, biologik aspekt, ijtimoiy aspekt.</p> <p>3-mavzu. Til – sistema sifatida</p> <p>Metod tushunchasi, metodologiya, metodika, qiyosiy tarixiy usul, chog'ishtirish metodi, tipologik metod, qiyosiy metod, bobo til, komparativistika, klasifikatsion yondashuv, xarakterologik yondashuv, belgili yondashuv, ichki system yondashuv.</p>
----	--

<p>4-mavzu. Til – ijtimoiy hodisa</p> <p>Til, jamiyat, ijtimoiy hodisa, naturalistik oqim, kommunikativ, ekspressiv va kommunikativ vazifalar, geneologik funktsiya.</p> <p>5-mavzu. Tillarning rivojlanishi va variantlashuvi</p> <p>E-Sepir nazariyasi, statik tipologiya, dinamik tipologiya, variantlashuvi.</p> <p>6-mavzu. Lison va nutq munosabati</p> <p>Til, nutq, lison, til birliklari, nutq birliklari, Til va nutq dixatomiyasi. Sossyurning til va nutq antinomasiga munosabati. Tilga va nutqqa xos xususiyatlar.</p> <p>7-mavzu. Dunyo tillari. Dunyo tillari tasnifining nazariy asoslari. Dunyo tillari tasnifi</p> <p>Dunyo tillari, tasnif, morfologik tasnif, geneologik tasnif, areal tasnif, funksional tasnif, turkiy, somiy, eroniy, hind, xitoy tillari.</p> <p>8-mavzu. Til va tafakkur</p> <p>Til, tafakkur, psixologiya, nutq, fikr.</p> <p>9-mavzu. Til va jamiyat</p> <p>Jamiyat, til, nutq, madaniyat, tarixiy muhit, shaxs, sotsiologiya.</p> <p>10-mavzu. Til sathlari</p> <p>Til sathlari, fonetik-fonologik sath, lug'at sathi, grammatik sath.</p> <p>11-mavzu. Fonetika va fonologiya</p> <p>Fonetika va uning obyekti. Fonema va fonologiya. Harf va tovush munosabati. Unli va undoshlar tizimi. Tovush o'zgarishlari.</p> <p>12-mavzu. Leksikologiya</p> <p>So'z va uning ma'nosi. Ma'no ko'chish yo'llari. Polisemiya. Iborat. Omonim, sinonim, antonym so'zlar. Tilning lug'at tarkibi. Atama. Yangi so'zlar. Eskirgan so'zlar. Istorizmlar. Dialektal qatlam. Tabu va evfemizm.</p> <p>13-mavzu. Grammatika. Grammatik ma'no</p> <p>Grammatika va uning bo'limlari. Morfologiya. Sintaksis. So'z turkumlari. Mustaqil so'z turkumi. Yordamchi so'z turkumi. Oraliqdagi so'zlar. Gap bo'laklari.</p> <p>14-mavzu. Morfologiya</p> <p>Ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l, taqidlar, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama, so'z gaplar</p> <p>15-mavzu. Sintaksis</p> <p>Tilning sintaktik qurilishi, sintaktik birliklar, gap bo'laklari, gap turlari</p> <p>III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p><i>Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tillarni tasniflash asoslari. 2. Dunyo tillari va xalqaro tillar. 3. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi. 4. Fonetika va fonologiya. 5. Tillarning tarqiyot qonuniyatlari. 6. Dunyo tillari tasnifi. 7. Til universallarini aniqlash va ularni o'rganish tarixi.
--

<p>8. Etalon tillar.</p> <p>9. Morf va morfema.</p> <p>10. Tirik va o'lik tillar. Tilning huyotiylik omillari</p> <p>11. Sun'iy tillar.</p> <p>12. Grammatik ma'no.</p> <p>13. Orfoepiya va orfografiya.</p> <p>14. Grafika.</p> <p>15. Til va yozuv.</p> <p>16. Til sathlari.</p> <p>17. Nutq uslublari.</p> <p>IV. Mustaqlil ta'lim va mustaqil ishlari</p> <p>Fan bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish; • tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish; • maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; • talabning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish; • badiiy asarlarni o'qish va mutolaa qilish; • faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari. • masofaviy (distanston) ta'lim. <p><i>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tilning paydo bo'lishi haqidagi diniy talqinlar.- 2. Tilning paydo bo'lishi haqidagi idealistik farazlar. 3. Tilning kelib chiqishi haqidagi dualistik qarashlar. 4. Tilning kelib chiqishi haqidagi materialistik yondoshuvlar. 5. Til va tafakkur munosabati 6. Ingliz tilining geografik tarqoqlanishi. 7. Geografiya bo'yicha tillar guruhi. 8. Til ta'limiga til falsafasi nuqtai-nazaridan yondashuv. 9. Lingvistik universalni aniqlash va ularning tadqiqot tarixi. 10. O'zbek areal tishunosligi tarixi va istiqbollari. 11. Turkiy tillarda singarmonizm hodisasi. 12. Turkiy tillardagi muhtarak va farqli jihlatlar. 13. Genetik tipologiya. 14. Vostitachi tillar: lingva-franka, kreol, pijin va koynе. <p>3. Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p>	<p>- taqqoslanadigan tillarning fonetika, morfologiya, lug'at va sintaksis sohasidagi asosiy xususiyatlarini anglashi;</p> <p>- fonologik, morfologik, leksik va sintaktik darajadagi interferensiyasi sabablarini aniqlashi;</p> <p>- o'rganilayotgan har bir tilning tipologik xususiyatlarini o'rganishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalana olishi;</p> <p>- leksikologiya, fonetika, grammatika va sintaksis sohasidagi tillarning o'ziga xos tipologik xususiyatlarini bilishi kerak;</p> <p>- german (ingliz, nemis) va german bo'lmagan (o'zbek, rus, tatar) tillari hodisalarida o'xshash hamda o'ziga xos xususiyatlarini topish, zamonaviy ingliz tili hodisalarini ona tili nuqtayi nazaridan tushuntirish, o'z ilmiy tadqiqotlarida qiyosiy va kontrastli usullarni qo'llay olish, lingvistik faktlarni kontrast-qiyosiy yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilish, muayyan nazariy masalalarga doir fikrlarni bayon etishi, ayni fikrlarga qiyosiy tishunoslik bo'yicha ilmiy adabiyotlardan tanqidiy foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;</p> <p>tillarning tasnifi bilan tanish bo'lishi, o'rganilayotgan tillarning tipologik xususiyatlarini o'zlashtirishda til hodisalarini til sathlari bo'yicha qiyoslash, o'z nuqtayi nazarini ilmiy asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana olish malakasiga ega bo'lishi zarur.</p> <p>4. VL Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <p>"Tishunoslik asoslari" fanini o'qitishda interfaol metodlar, xususan, bis-so'rov, taqdimotlarni qilish, jumoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar, analiz, sintez, statistik, ijodiy yondashuv, tavsiflash, tasniflash, baholash, komponent tahlil, amaliy ishlarni bajarish va xulosalash va boshqa metod hamda usullardan foydalaniladi.</p> <p>5. VII. Talabalar kreditlarini olish tartibi</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayomiga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom" Nizomning 15- va 30-bandlariga asosan Tillar tipologiyasi fanidan 150 soat (1-semestrda 150) o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi(silabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijobiy baholani kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egalagan talabaga 5 (1-semestrda 5) kredit beriladi.</p> <p>Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.</p> <p>Talabalar bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustda 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.</p>
---	--

Talabalarning bilimini baholash mezonlari:

5 baho. Talaba amaliy topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan keng nazariy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.

4 baho. Talaba amaliy topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritiladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muayyan nazariy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.

3 baho. Talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talabada fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.

2 baho. Talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.

6. Asosiy adabiyotlar:

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010.
2. Iritsuloqov I. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H.Dadaboyev. – Toshkent, 2004.
5. Sharipova O', Yo'ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. - Toshkent, 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харажатлар стратегияси" тўғрисидаги Фармони ("Халқ сўзи", 2017 йил, 8 февраль).

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора – тадбирлари" тўғрисида ("Халқ сўзи" 2017 йил, 21 апрель)

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda bargo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.

4. Абдулқанов А., Шереметова А. Общее языкознание. – Тошкент, 2004.

5. Bushuy A.M., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent, 2007.

6. Yo'ldoshev I. va b. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2013.

7. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ifdizlari va yo'nalishlari. – Andijon, 2006.

8. Rahmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2007.

9. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007.

10. Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Armoft, M., Rees-Miller, J. P.65-68.

Axborot manbalari:

www.literature.uz

www.genhis.philol.ru.

<http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>.

<http://www.brooku.ca/english/courses/4F70/struet.html>.

7. Fan dasturi Universitet Kengashining 2023-yil ___-avgustdagi ___-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

8. Fan uchun mas'ullar:

B.R.Mengliyev – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "Amaliy filologiya" kafedrasi professori, f.f.d.

D.Q.Elova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, "Amaliy filologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

9. Taqrizchilar:

1. S.Muhamedova – ToshDO'TAU professori, f.f.d.

2. M.Hakimova – ToshDO'TAU dotsenti, f.f.d.